

**TEMIR YO'L POYEZDLARINING VAGONLARIDA VIDEOROLIKLARNI
TRANSLYATSIYA QILISH UCHUN**
TEXNIK TOPSHIRIQ

Ijrochiga qo'yiladigan talablar:

1. Reklama faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning mavjudligi;
2. Bunday xizmatlarni ko'rsatish tajribasiga ega bo'lishi;
3. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ bilan o'zaro shartnomaning mavjudligi va ushbu kompaniya bilan kamida 2 yil ish tajribasiga ega bo'lishi hamda buni tasdiqlovchi hujjalarning taqdim etilishi.

Reklama roliklari joylashtiriladigan poyezd yo'naliishlari:

1. Afrosiyob: Toshkent – Samarqand – Buxoro – Samarqand – Toshkent;
2. Afrosiyob: Toshkent – Samarqand – Qarshi – Samarqand – Toshkent;
3. Afrosiyob: Toshkent – Samarqand – Buxoro – Samarqand – Toshkent;
4. Afrosiyob: Toshkent – Samarqand – Toshkent;
5. Afrosiyob: Toshkent – Samarqand – Buxoro – Samarqand – Toshkent;
6. Sharq: Toshkent – Samarqand – Toshkent;
7. Registon: Toshkent – Qarshi – Toshkent;
8. Registon: Termiz – Toshkent – Termiz;
9. O'zbekiston (ertalabki): Toshkent – Andijon – Toshkent;
10. O'zbekiston (kechki): Toshkent – Andijon – Toshkent;
11. Buxoro – Xiva – Buxoro.

Translyatsiyaga qo'yiladigan talablar:

1. Reklama roliklari ovozli tarzda va uzulmasdan, bir vaqtning o'zida barcha vagon va monitorlarda efirga uzatilishi lozim.
2. Roliklar ovozining balandligi vagonlarda mavjud boshqa tovushlardan farq qilishi kerak.
3. Roliklarni efirga uzatish navbatи boshqa moliyaviy tashkilotlarning roliklari bilan ketma-ket bo'lmasligi zarur.
4. Buyurtmachining talabiga ko'ra, roliklar boshqasiga almashtirilishi mumkin. Ushbu holda, almashtirish, so'rov kelib tushgan kunning ertasiga amalga oshiriladi va rolik almashgani haqida fotohisobot taqdim qilinadi.
5. Agentlik taqdim etilgan materiallarni efirga uzatilishini nazorat qilib borishi va bir oyda bir marotaba fotohisobotni taqdim qilishi yoki buyurtmachining so'roviga ko'ra hisobot berishi lozim.

Shartnoma talablari:

Shartnomada kelishilgan summaning 50 % dan ko'p bo'limgan oldindan to'lov qilingan yillik shartnoma. Kelgusida to'lovlar, oyma-oy taqdim qilinadigan hisob-fakturaga asosan amalga oshiriladi. Shuningdek, boshqa turda amalga oshiriladigan to'lovlar ham ko'rib chiqilishi mumkin.